

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601731>

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA DAVLAT XARAJATLARINING ROLI

Shakarov Allayor

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida dotsenti.

Yahyoyev Bahriddinxon

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotida davlat xarajatlarining o'rnini va ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekiston iqtisodiyoti misolida davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, byudjet mablag'larining taqsimlanishi va ularning aholi farovonligiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. davlat xarajatlari, iqtisodiy o'sish, byudjet, infratuzilma, ijtimoiy soha, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes the role and importance of government spending in the country's economy. Using the example of Uzbekistan's economy, the impact of state spending on economic growth, the distribution of budget funds, and their impact on the well-being of the population are considered.

Key words. state expenditures, economic growth, budget, infrastructure, social sphere, Uzbekistan's economy.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan davlat xarajatlarining samaradorligiga bog'liq. Davlat xarajatlari orqali hukumat iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytiradi va infratuzilmani rivojlantiradi. O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda davlat xarajatlarini strategik

yo‘nalishlarga yo‘naltirish orqali o‘shirish sur‘atlarini oshirishga erishmoqda. Ushbu maqolada davlat xarajatlarining asosiy turlari, ularning iqtisodiyotga ta‘siri va O‘zbekiston tajribasi tahlil qilinadi.

Davlat xarajatlari iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga muvofiq bir nechta asosiy toifalarga bo‘linadi. Bu toifalar quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy soha xarajatlari (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta‘minot): Ijtimoiy himoya dasturlari orqali aholining himoyaga muhtoj qatlamlariga adolatli yordam ko‘rsatish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.
- Infratuzilma xarajatlari (yo‘llar, energetika, suv ta‘minoti): Infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish va logistika jarayonlarini yaxshilash.
- Mudofaa va xavfsizlik xarajatlari: Milliy xavfsizlik va mudofaa tizimlarini mustahkamlash orqali ichki va tashqi xavfsizlikni ta‘minlash.
- Davlat boshqaruvi xarajatlari va davlat qarzigacha xizmat ko‘rsatish: Davlat boshqaruv tizimini samarali tashkil etish va davlat qarzini samarali boshqarish..

Ushbu xarajatlarning har biri iqtisodiy faollik, aholi farovonligi va barqaror o‘shirishga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda davlat xarajatlari so‘nggi yillarda izchil o‘smoqda. 2024 yilda byudjetning katta qismi ta‘lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilma loyihalariga yo‘naltirilgan. Bu esa ichki talabni rag‘batlantirib, iqtisodiy o‘shirishga hissa qo‘shmoqda. Davlat xarajatlarining maqsadli taqsimlanishi natijasida 2023 yilda O‘zbekiston iqtisodiy o‘shirish sur‘ati 5% dan yuqori bo‘ldi va yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) O‘zbekistonning 2024 yilda iqtisodiy o‘shirishini 6,5 foiz etib baholadi. Bu prognoz 2025 yilda esa 6 foiz ga oshishi kutilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy ta‘minot sohasidagi islohotlar aholining farovonligini oshirishga yordam berdi.¹

¹ <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-xarajatlari-2>

Davlat xarajatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin:

- **Bevosita ta'sir:** Infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va davlat buyurtmalari orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. *Infratuzilma loyihalari:* Yo'llar, ko'priklar, energetika va suv ta'minoti inshootlarini qurish, bu esa iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi va transport hamda savdo jarayonlarini yaxshilaydi. *Yangi ish o'rinlari yaratish:* Davlat buyurtmalari va loyihalari orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi, bu esa ishsizlik darajasini pasaytiradi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- **Bilvosita ta'sir:** Aholining daromadlarini oshirish, ichki talabni kengaytirish va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston misolida davlat xarajatlarining oshishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. *Daromadlarni oshirish:* Davlat xarajatlari orqali amalga oshirilgan loyihalar natijasida aholining daromadlari oshadi, bu esa ichki talabni rag'batlantiradi. *Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish:* Infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy sohani yaxshilash orqali xususiy investorlar uchun qulay sharoit yaratiladi, bu esa iqtisodiy o'sishni qo'llab- quvvatlaydi.

Davlat xarajatlarining ijtimoiy sohaga ta'siri juda ham muhim hisoblanadi. Chunki ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlar aholining umumiy farovonligi va inson kapitalining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bu, o'z navbatida, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi. Ta'limga sarflangan mablag'lar, o'qituvchilarni tayyorlash va maktablarni qurish orqali inson kapitalini rivojlantiradi. Sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash orqali aholining sog'lig'ini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish va umr ko'rish davomiyligini oshirish muhim hisoblanadi. Shuningdek infratuzilma bo'lgan xarajatlar ham muhim hisoblanadi. Ya'ni yo'llar, energetika va suv ta'minoti kabi infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy faollikni oshiradi va savdo-sotiq jarayonlarini osonlashtiradi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahsulotlarni yetkazib berish tezligini oshirish va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish mumkin. Energiya

ta'minotini yaxshilash orqali esa sanoat va ishlab chiqarish sohasida samaradorlikni oshiramiz.

Shu bilan birga, davlat xarajatlarining moliyaviy barqarorlikka ta'siri ham mavjud. Biz bilamizki moliyaviy barqarorlikning asosiy vazifalari davlat qarzi, byudjet taqchilligi, byudjetni rejalashtirish va davlat qarzini boshqarish ustidan barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi. O'zbekiston davlat xarajatlarini samarali boshqarish orqali davlat qarzi va byudjet taqchilligini nazorat qiladi. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Byudjet mablag'larini maqsadli va samarali taqsimlash orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat qarzini me'yorida ushlab turish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun moliyaviy siyosatni rivojlantirish ham alohida o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat xarajatlari iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biridir. Ijtimoiy soha, infratuzilma va davlat boshqaruviga yo'naltirilgan xarajatlarda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda davlat xarajatlarining oshirilishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga, bandlikni ta'minlashga va ijtimoiy adolatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish va byudjet mablag'larining maqsadli taqsimlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5992, 2020 yil 12 may, 'O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi'.
2. Jahon banki va xalqaro moliya institutlarining rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti bo'yicha hisobotlari.
3. Moliya va iqtisodiyot bo'yicha ilmiy maqolalar va tahliliy materiallar.